

ABZALOVA Farida

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

tayanch doktranti

faridaabzalova96@gmail.ru

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING ISLOM ILMLARIGA OID ASARLARI TAHLILI

THE ANALYSIS OF MAHMUD AL- ZAMAKHSHARI'S WORKS ON ISLAMIC STUDIES

АНАЛИЗ ТРУДОВ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ ПО ИСЛАМОВЕДЕНИЮ

Annotatsiya. Mazkur maqola Mahmud Zamaxshariyning islomshunoslikka oid asarlari tahliliga bag'ishlanadi. Maqola muallifi Zamaxshariy asarlari haqida ma'lumot berib ularni soha yo'nalishi bo'yicha tasniflab chiqadi. Mazkur asarlardan "Kashshof", "Nukatu-l-i'rob", "Ruusu-l-masoil", "al-Foiq fi g'aribi-l-hadis", "Navabig'u-l-kalim", "Atvaqu-z-zahab fi mavaiz va-l-xutob" asarlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, asarlarning dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalari haqida ham to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar. Mahmud Zamaxshariy, sharh, "Kashshof", "Nukatu-l-i'rob", "Ruusu-l-masoil", "Al-Foiq fi g'aribi-l-hadis", "Navabig'u-l-kalim", "Atvaqu-z-zahab fi mavaiz va-l-xutob"

Annotation. The mentioned article is devoted to the Islamic studies of Mahmud Zamakhshari and the analysis of his religious and scholarly works. The author of the article provides information about the works of Zamakhshari and classifies them according to their thematic fields. The article gives a detailed account of such prominent works as "al-Kashshaf", "Nukat al-i'rab", "Ruusul al-Mas'il", "al-Fa'iq fi Gharib al-Hadith", "Nawabigh al-Kalim", and "Atwaq al-dhab fi al-Mawa'iz wa al-Khutab". Furthermore, the author provides detailed descriptions of these works and examines the manuscript copies preserved in various libraries of the world.

Keywords: Mahmud Zamakhshari, commentary, "al-Kashshaf", "Nukat al-i'rab", "Ruusul al-Mas'il", "al-Fa'iq fi Gharib al-Hadith", "Nawabigh al-Kalim", "Atwaquz zhab fi al-Mawa'iz wa al-Khutab".

Аннотация. Данная статья посвящена наследию Махмуда аз-Замахшари по исламским наукам и анализу его религиозно-научных трудов. Автор статьи предоставляет сведения о произведениях Замахшари и классифицирует их по тематическим направлениям. В частности, подробно рассматриваются такие известные труды, как «аль-Кашишаф», «Нукат аль-и'раб», «Руусуль аль-масаиль», «аль-Фаик фи гариб аль-хадис», «Навабиг аль-калим» и «Атбак захаб фи аль-маваиз ва аль-хутаб». Кроме того, в статье даётся информация о рукописях указанных трудов, хранящихся в различных библиотеках мира.

Ключевые слова: Махмуд Замахшари, комментарий, «Кашишаф», «Нукат аль-и'раб», «Руусуль аль-масаиль», «аль-Фаик фи гараиб аль-хадис», «Навабиг аль-калим», «Атбак аз-захаб филь-маваиз ва-ль-хутаб».

KIRISH

Xorazm vohasida azaldan jahon fani va madaniyatiga hissa qo'shgan ko'plab allomalar yetishib chiqqan. Ayniqsa o'rta asrlarda bu diyorda ilm-fanning turli sohalari bo'yicha samarali ijod qilgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Miskavayh, Abu Nasr al-Iroq, Abu sahl Masihiy, Abu al-Xayr ibn al-Hammor kabilarning dong'i butun Mag'ribu Mashriqqa tarqalgan. Xorazm zaminida tavallud topgan buyuk allomalrdan biri Abu al-Qosim Mahmud az-Zamaxshariydir [1:4].

Zamaxshariy o'z davrining zabardast olimlaridan biri bo'lib, fanning turli sohalariga oid to'qsonga yaqin asar yozgan. Lekin ularning barchasi ham bizgacha yetib kelmagan. Allomaning asarlari soni turli manbalarda turlicha keltiriladi. Zamaxshariy asarlarini tahlil qilgan S.Saidjalolov Mahmud Zamaxshariy 91 ta asarga mualliflik qilgan deb ma'lumot beradi [2:30].

ASOSIY QISM

Mahmud Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini, jumladan, arab tilining sarf (morfologiya) va nahv fani (grammatika)ni, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, geografiya, aruz, mantiq, diniy ilmlar hamda Qur'on tafsirini mukammal egallagan va mazkur ilm sohalarining

deyarli barchasida qimmatli asarlar yaratgan. Alloma qalamiga mansub islomshunoslikka oid asarlarni yo'nailshlar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tafsir: "al-Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil" ("Qur'onning berk haqiqatlarini va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochgich") nomli tafsiri va "Nukatu-l-i'rob fi g'arib e'rob fi-l-Qur'onil Karim" ("Arablarining go'zal iboralaridagi nafis ifodalar") asari.

2. Fiqh: "Ruusu-l-masoil" ("Asosiy masalalar"), "Mu'jamu-l-hudud" ("Had"lar qomusi), "al-Minhoj fi-l-usul" ("Usul ilmi bo'yicha yo'llanma"), "ar-Roiz fi ilmi-l-faroiz" ("Faroiz ilmining o'rgatuvchisi"), "Shaqoiqun-Nu'mon" ("Qizil guldasta"), "Shafiyu-l-ay" ("Dardlar shifosi") va "ar-Risolatu fi kalimati-sh-shahada" ("Shahodat kalimasi haqida risola") asarlari.

3. Hadis: "al-Foiq fi g'aribi-l-hadis" ("Hadis lafzlardagi noma'lum ma'nolarni aniqlashtiruvchi").

4. Didaktika: "Rabi'u-l-abror va fususu-l-axbor" ("Yaxshilar bahori va xabarlariga oid asosiy ma'nolar"), "Atvaqu-z-zahab fi-l-mavaiz va-l-xutob" ("Va'z va xutbalarda oltin shodalar"), "an-Nasoihi-l-kibor" ("Muhim nasihatlar"), "An-nasoihu-s-sig'or" ("Kichik nasihatlar"), "ar-Risala an-n-asiha" ("Nasihat risolasi").

Quyida Mahmud Zamaxshariyning mazkur asarlarining ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

"Kashshof". Mahmud Zamaxshariyning islom dunyosida qisqacha "Kashshof" nomi bilan mashhur bo'lgan **"Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil"** ("Qur'onning berk haqiqatlarini va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochgich") nomli tafsiri olim ilmiy merosining gulto'ji hisoblanadi. Ushbu asar islom dunyosida o'zining ilmiy ahamiyati bilan umume'tirof etilgan filologik tafsir sifatida baholangan.

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda alloma bu nodir asarini ikki bosqichda yozadi. Dastlab yigitlik yillarida Arabistonga haj ziyorati uchun borganida Qur'oni karimning "Baqara" surasini sharhlay boshlaydi va uni Makka amiriga taqdim etadi. Mahmud Zamaxshariy tafsir

ilmiga qo'yilgan barcha talablarni mukammal o'zlashtirgandan so'nggina tafsir ishini davom ettiradi va uni Makkaga ikkinchi marta qilgan safari mobaynida, ya'ni 1130-1134 yillar orasida muvaffaqiyatli yakunlaydi [3:2].

"Kashshof" asari tafsir bo'yicha nihoyatda ahamiyatli asar hisoblanib, hozirgi kungacha "al-Azhar" universitetida o'qitilib kelinmoqda. Asarda oyatlarning balog'at, fasohat jihatidan asl ma'nolari keng qamrovda ochib berilishi muallifning chuqur bilimi va mantiqiy mushohadasidan darak beradi. Bu asarning nodir qo'lyozmalari dunyoning ko'plab kutubxonalarida mavjud va bugungi kunga qadar ular ustida bir qator tadqiqotchilar talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman dunyoning turli qo'lyozma xazinalarida "Kashshof"ning yuzga yaqin qo'lyozmalari va asarning o'ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida ma'lumot beradi. Bu esa o'z navbatida Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat.

Ingliz sharqshunosi Gibb "Arab adabiyoti" asarida shunday yozadi: "Zamaxshariy birinchi navbatda o'z tafsiri bilan mashhur bo'lgan. Asrlar o'tsa-da, bu tafsir qayta-qayta nashr ettirilmoqda va hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan [4:85,86]".

Nemis sharqshunosi Karl Brokkelmannning "Geschichte der arabischen litteratur" kitobida "Kashshof" asari haqida yana qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Unga ko'ra, "Kashshof"ning yuzga yaqin qo'lyozma nusxalari London, Manchester, Berlin, Myunxen, Gamburg, Leyptsig, Milan, Sankt-Peterburg, Peshovar, Kalkutta, Raypur, Istanbul, Tunis, Qohira kabi dunyoning turli shaharlarida joylashgan eng yirik kutubxona va fondlarida saqlanadi. Bundan tashqari, Zamaxshariy tafsiriga yozilgan yigirmadan ortiq sharhlarni ko'plab shaharlarda uchratish mumkin. Bunday sharhlar Mahmud ibn Mas'ud Sheroziy (vaf. 1310-y.), Husayn ibn Muhammad Toyibiy (vaf. 1342-y.), Muhammad Taftazoniy (vaf. 1389-y.), Jurjoni (vaf. 1413-y.) kabi mashhur olimlar tamonidan amalga oshirilgan. [5:507-509].

"Kashshof"ning Zamaxshariy o'z qo'li bilan oqqa ko'chirgan dastxat nusxasi (1134-y.) Tehron kutubxonasida saqlanadi [6:57].

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida "Kashshof" asarining 14 ta qo'lyozma va 10 ta toshbosma nusxasi saqlansa, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasida 1 ta qo'lyozma va 16 ta toshbosma nusxalari mavjud. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida ham Kashshof'ning 1 ta qo'lyozmasi bor.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Kashshof" asarining 14 ta qo'lyozmasidan birorta nusxasi ham to'liq emas. Ularning ayrimlarida asarning birinchi qismi, ba'zilarida ikkinchi yoki uchinchi qismi saqlangan. Yana ayrimlarida esa bitta jildida asarning turli bo'laklari jamlangan.

O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan toshbosmalarning barchasi Misrdagi "Sharqiya" hamda "al-Kubra-l-amiriya" nashriyotlari tomonidan tayyorlangan. Toshbosmalarning bittasi 1306/1888-yilda, beshtasi 1307/1889-yilda, ikkitasi 1308/1890-yilda hamda 6 tasi 1318/1900-yilda chop etilgan. Ikkitasi toshbosmaning nashr yili ma'lum emas [7:106].

"Nukatu-l-i'rob fi g'arib e'rob fi-l-Qur'onil Karim" ("Qur'onning ajoyib ifodasida arablar nafasoti") asari allomaning arab grammatikasining nozik jihatlari ochib beruvchi asarlaridan yana biri bo'lib, unda Qur'oni karim oyatlarining nozik jihatlari grammatik tahlil orqali ochib beriladi. Mazkur asar qo'lyozma holatida. Zamaxshariy uni "Nukatu-l-i'rob fi g'aribi-l-e'rob" nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba'zilar o'zlarining kitoblarida bu nomga "Fi-l-Qur'oni-l-karim" iborasini qo'shganlar [8:32].

Mazkur asar tilshunoslikdagi grammatik mavzularni nozik jihatlari o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Kitobning tuzilishiga kelsak, olim uni suralar nomi bilan ataluvchi boblarga bo'lib chiqqan. Asar "Fotiha" surasidan boshlanib, so'ng "Baqara" surasi, so'ng "Oli Imron" surasi kabi tartib bilan izohlanadi. "Ixlos" surasi bilan asar tugallanadi. Lekin alloma ushbu asarida Qur'oni karimdagi to'liq 114 ta surani barchasini tadqiq etmagan. Modomiki, asarda 68 ta bob mavjud ekan,

demak, alloma 68 ta sura ustida ish olib borgan. Qolgan 64 sura esa kitobga kiritilmagan. Alloma suralarni tanlashda ularning grammatik jihatidan nozik jihatlari ko'proq bo'lganlariga e'tibor qaratgan.

Asarning qo'lyozmasi yagona nusxada bo'lib, bu haqida Brokelman o'zining "Tarixu-l-adabi-l-a'rabiyy kitobida ma'lumot beradi. Mazkur qo'lyozma Qohiradagi "Doru-l-kutubu-l-vasoiqi-l-qavmiyya" kutubxonasining qo'lyozmalar fondida 898 raqami ostida tafsir bo'limida saqlanadi. 64 varoq 128 sahifadan iborat.

"Ruusu-l-masail" ("Asosiy masalalar") Zamaxshariyning fiqh ilmiga bag'ishlangan asari bo'lib unda alloma hanafiy va shofeiyy mazhablari orasidagi huquqiy masalalardagi farqlarni ochib beradi.

Qozi ibn Xallikon "Vafayotu-l-a'yon"da "Ruusul-masail"ni Zamaxshariy asarlari qatorida sanagan [9:169].

"Zamaxshariyning "Ruusu-l-masail" asari (538-1144 v.e.) hanafiy va shofeiyy mazhablari orasidagi farqli bo'lgan huquqiy masalalarga bag'ishlangan risola bo'lib 106 sahifadan iborat. Sahifalar bo'yi – 17, eni – 13.1 sm. Nasx xati. Xattot – Abdurrahmon ibn Jandar ibn Ayyub Shibliy. 576-hijriy yilning rajab oyi (milodiy 1180)". Ko'chirilgan boshqa nusxasi mavjud emas [10:1].

Mahmud Zamaxshariyning bizgacha yetib kelgan yagona fihiy asarining to'liq nomi - "Ruusu-l-masai-l-xilafiya bayna Abi Hanifata va-sh-Shofeiyy" ("Imom Abu Hanifa va Shofeiyy orasida ixtilofli bo'lgan asosiy masalar") bo'lib, ayni paytda uning qo'lyozmasi Irlandiyaning Dublin shahri Chesterbiti kutubxonasida 3600-raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozmaning faksimile nusxasi Makkai mukarramaning "Ummu-l-quro" universiteti kutubxonasida mavjud [2:57].

"Al-Foiq fi g'aribi-l-hadis" ("G'arib hadislar haqida ajoyib asar") lug'ati Mahmud Zamaxshariyning hadislarda uchraydigan nodir va qiyin so'zlarga bag'ishlangan asari hisoblanadi. Asarda so'zlar alifbo tartibida berilib hadislardagi ma'nosini anglash qiyin bo'lgan so'zlarning izohi keltiriladi va uning ma'nosini ochuvchi she'riy yoki nasriy misollar bilan sharhlanadi.

Bu asar haqida Ibn Hajar Asqaloniy o'zining "Lisanu-l-miyyan" asarida shunday yozadi: "Zamaxshariyning "al-Foiq fi g'aribi-l-hadis" nomli kitobi eng qimmatli asarlardan biri. Chunki u turli joylarga sochilib ketgan ma'lumotlarni bir joyda jamlagan, qisqacha va lo'nda bayon qilingan va naqlari to'g'riligi bilan ajralib turadigan asardir" [11:4].

Ushbu asar ustida tadqiqot olib borgan sharqshunos O'.Qoriev bu asar xususida fikr bildirib shunday deydi: "Faqih, adib, lug'atshunos, nahvshunos, muhaddis atalmish olimlar uchun bu sohalarning hammasini egallashga zarur bo'lgan so'z va atamalar aynan shu kitobda yig'ilgan. Buni o'zlashtirgan kishi Qur'on va uning tafsiriga o'tishi mumkin [12:60-61]". Mazkur asar tufayli Zamaxshariy buyuk muhaddis nomiga sazovor bo'lgan. Olimlarning ta'kidlashicha, "... arab leksikografiyasi tarixidagi "al-Foiq fi g'aribi-l-hadis" lug'ati muhim o'rin egallaydi. Bu lug'atga hamma davrlarda yuksak baho berilgan. Bu lug'at tufayli Zamaxshariy buyuk muhaddis sifatida tanilgan [13:92]".

Zamaxshariyning mazkur asari muqaddimasida hadislardagi ayrim so'zlarning ma'nolarini osonlashtirish, balog'at va fasohatini ochib berish maqsad qilganini aytib xotimada esa lug'at 516-hijriy yilda yozib tugatilganligi haqida ma'lumot beradi. Lug'atning "al-Foiq" nomi ham shu yerda keltirilgan.

"Al-Foiq fi g'aribi-l-hadis"da dastlab har bir so'zidan keyin so'zning to'g'ri o'qilishi uchun fonetik qaydlar berilgan. Alloma asarda yoyiq tavsif usulidan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Bu usul arab lug'atnavisligi erishgan eng qadimiy va o'zini oqlagan usullardan hisoblanadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida bu asarning 2 ta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. [13:93]

"Atvaqu-z-zahab fi-l-mavaiz va-l-xutob" ("Va'z va xutbalarda oltin shodalar") asari 100 ta maqolatni o'z ichga olgan pand-nasihatlarga asoslangan nodir manba hisoblanadi.

Mahmud Zamaxshariy bizga turli sohalarga oid nodir va boy meros qoldirgan. Mazkur meros orasida tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan asarlar

muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning IX asr boshida yaratilgan "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavoiz va-l-xutab" ("Va'z va xutbalarda oltin shodalar") falsafiy-didaktik asari shular jumlasidandir. Zamaxshariy bu asarini Makkada yaratgan bo'lib, u dastlab "an-Nasoihu-s-sig'ar" ("Kichik nasihatlar") deb nomlangan. Asar saj usulida yozilgan yuzta kichik maqoladan iborat. Unga sharh yozgan Mirzo Yusufxon Ashtiyoniyning aytishicha, "Zamaxshariy bu asarini Makkada Baytullohni tavof qilgan vaqtida yozgan. Chunonchi, Baytullohni tavof qilib, har bir aylanganidan keyin bir maqola yozgan. Maqolani yozib yakunlagach, Baytullohni yana aylangan va shu tariqa yuz marta aylanganidan so'ng "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavoiz va-l-xutab" asarini tashkil etuvchi yuzta maqola yozilgan [14:32]".

Alloma ushbu asarning har bir maqolasida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini tasvirlab insonlarni odob-axloqli, ilmu hunarli bo'lishga chaqiradi. Zolim podshohlar, adolatsiz amaldorlarni qoralab xalqparvar g'oyalarni ilgari suradi. Asar bir qancha tillarga tarjima qilingan. Jumladan, Fon Jozep Xammer tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimasi arabcha matni bilan 1835-yili Venada, shu yil Leypsigda qayta bosilgan. 1863-yili Shtutgartda Gustav Fayl asarni ikkinchi marta nemischaga o'g'irgan. Mazkur asar ustida fransuz sharqshunosi Barbe Leynard ham tadqiqot olib borgan. U fransuz tiliga qilgan tarjimasini 1876-yil Parijda chop ettirgan. Asarning turkcha tarjimasi 1870-yil Konstantinopolda nashr etilgan [1:28].

Mazkur asarining qo'lyozmalari Londondagi Britaniya muzeyining arab qo'lyozmalari fondida (№1003), Parij Milliy kutubxonasida (№3973), Vatikanning arab qo'lyozmalari kutubxonasida (№1380), Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyida (№922), Qohiradagi "Doru-l-kutub" kutubxonasida (№203) saqlanmoqda. Shuningdek, asarning qo'lyozma nusxalari Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi tarkibidagi Asir Afandi (№ 416, 417), Ayo Sofiya (№ 2911, 3780), Hofiz Afandi (№ 275-I), Rashid Afandi (№715-3) nomli fondlarda ham mavjud [15:512].

Bugungi kunda asarning uchta toshbosma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bu uch nusxa nodir toshbosmalar safiga kiradi.

XULOSA

Mahmud Zamaxshariy islom ilmlari rivojiga katta hissa qo'shgan allomalardan biridir. Uning Qur'on tafsiri, hadis, fiqh, usul, kalom va axloq sohalariga oid asarlari o'z davrida ham, keyingi asrlarda ham ilm ahli tomonidan yuksak qadrlangan. Zamaxshariy o'z asarlarida arab tili va mantiq ilmini chuqur o'rganib, ularni diniy ilmlar bilan uyg'unlashtira olgan. Shu bois, uning merosi faqat diniy jihatdan emas, balki tilshunoslik va tafsirshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim manba hisoblanadi. Umuman olganda, Zamaxshariyning islom ilmlariga oid asarlari nafaqat o'z davrining, balki butun musulmon olamining ma'naviy va ilmiy merosini boyitgan bebaho xazina bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Uvatov U. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992. – B.4.
2. Saidjalolov S. Mahmud Zamaxshariyning "Ruusul-masail" asarida hanafiy mazhabi talqini. Monografiya. – T.: Tipograf, - B.30
3. Isломov Z. Mahmud Zamaxshariyning "al-Kashshof" asarining manbaviy muhiti. Islom tafakkuri jurnali. 2024-yil 3-son. -B.3-4.
4. Гибб Х.А.Р. Арабская литература. Классический период (Перевод А. Б. Халидова). – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – 85 – 86-с.
5. Brockelmann C. Geschichte der arabischen litteratur. Bd. I. - Weimar, 1898. – 507 – 509-s.
6. Oqilov M. Mahmud Zamaxshariyning qo'lyozma va bosma asarlari // Adabiy meros, 1982. №4 (24). – B 57.
7. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy asarlarining manbalari. [Matn] : monografiya, T.: Bookmany print, 2022. –B.106
8. "Nukatul i'rob fi'y g'orib e'rob fi-l Qur'onil karim". – Qohira: "Dorul Ma'orif" nashriyoti –B. 32
9. Qozi ibn Xallikon. "Vafayot al-a'yon anbau abnau z-zaman". Bayrut: "Dor sodir".1997. J.5.-B.169.
10. Mahmud Zamaxshariy. Ruusul-masail-l-xilafiya bayna-l-hanafiya va-sh-shafiya. –Bayrut: Doru-l-bashair al-islamiya. 2007. -1 b.
11. نائبل-توريي. س.داسلا عزجلا. ن.ازيما ناسل. ي.نلاقسلا رجدن با /ص 4. تيملعا بتكلا رادلا 1996/
12. Qoriev O'. Az-Zamaxshariy tilshunos, adabiyotchi va shoir // Xorazmlik buyuk alloma. – T.: 1998. – B.60 – 61.
13. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariy asarlarining manbalari. [Matn] : monografiya, T.: Bookmany print, 2022. –B.92.
14. Sulaymonova N. Barkamol shaxs tarbiyasida Mahmud Zamaxshariy asarlarining ahamiyati. Monografiya. – T.:Bayoz, 2021. – B.22.
15. Islam ansiklopedisi. 13-gilt. – Istanbul: Milli egitim basimevi, 1986. – 512-s.